UO‘K 811.111

NOFILOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIGA CHET TILI O‘QITISHDA PRODUKTIV VA IZLANUVCHAN YONDASHUVNING TAHLILI

U.S. Nizamova

Maqolada nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga chet tilini o‘qitishda produktiv va izlanuvchan yondashuvlarning o‘rni, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda mazkur yondashuvlar asosida talabalarning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va nutq kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada o‘qitish jarayonida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan qisqa integrativ mashqlar va metodik tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar*: produktiv yondashuv, izlanuvchan yondashuv, kommunikativ metod, integrativ topshiriq, ijodkorlik, chet tili kompetensiyasi.*

В статье анализируется роль продуктивного и исследовательского подходов в обучении иностранному языку студентов нефилологических специальностей, а также показатели их эффективности. Рассматривается влияние данных подходов на развитие креативности, самостоятельности мышления и иноязычных речевых компетенций обучающихся. Представлены краткие интегративные упражнения и методические рекомендации, предназначенные для использования в образовательном процессе высшей школы.

Ключевые слова: *продуктивный подход, исследовательский подход, обучение иностранному языку, иноязычная компетенция, креативность, коммуникативные навыки, интегративные задания.*

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida nofilologik yo‘nalish talabalari uchun ham chet tilini bilish nafaqat kommunikativ ehtiyoj, balki kasbiy kompetensiyaning muhim qismini tashkil etadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, darsni talaba shaxsiga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi metodlarni tanlash chet tilini o‘qitish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Produktiv va izlanuvchan yondashuvlar o‘quvchi faolligini oshiradi, ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi, mustaqil axborot izlashga va o‘z fikrini asoslashga undaydi. Mazkur yondashuvlarni nofilologik yo‘nalishlar kesimida tadqiq etish ularning ta’lim jarayonidagi qo‘llanilish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida produktiv va izlanuvchan yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Produktiv yondashuv ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini real natijaga yo‘naltirilgan faoliyat orqali namoyon etishini ta’minlab, ularning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvda o‘quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki faol ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

Izlanuvchan yondashuv esa o‘quvchilarning ilmiy izlanish, muammo yechish va tahliliy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Mazkur yondashuv orqali ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratiladi va o‘quvchilar mustaqil ravishda axborot izlash, uni tahlil qilish hamda xulosalar chiqarishga o‘rgatiladi. Natijada, ta’lim oluvchilarning bilish faolligi va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi.

Ushbu yondashuvlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida o‘quvchilarning bilimlarni amaliyotda qo‘llash darajasi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi, ijodiy topshiriqlarni bajarish sifati hamda o‘quv jarayonidagi faollik darajasi e’tiborga olinadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, produktiv va izlanuvchan yondashuvlardan tizimli foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqot produktiv va izlanuvchan yondashuvlarning ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazilishidan asosiy maqsad nofilologik ta’lim yo‘nalishi (tarix ixtisosligi) talabalariga chet til o‘qitishda produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalari asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan mashqlar, ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan integrativ topshiriqlar hamda “SMART” texnologiyalari yordamida “Flipped classroom” modeliga tayanib “CASE study” texnologiyasining qo‘llanilishini tajriba-sinovdan o‘tkazishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida tajriba guruhlarida ingliz tilini o‘qitishda produktiv va izlanuvchan yondashuvlarga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etildi. Nazorat guruhlarida esa an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotni olib borishda pedagogik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatish, tajriba-sinov ishlari, testlar, so‘rovnoma, talabalar faoliyati natijalarini tahlil qilish hamda olingan ma’lumotlarni taqqoslash va umumlashtirish metodlari.

Tadqiqot natijalarini aniqlashda talabalarning kommunikativ kompetensiya darajasi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari, bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati hamda o‘quv jarayonidagi faollik ko‘rsatkichlari baholandi. Olingan natijalar statistik tahlil qilinib, produktiv va izlanuvchan yondashuvlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri aniqlandi.

Tajriba-sinov davomida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

− nofilologik OTMlarda (tarix yo‘nalishi) ingliz tili mashg‘ulotlarida produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalari qo‘llanilishini aniqlash maqsadida anketa so‘rovlari va testlar o‘tkazildi hamda tahlil qilindi;

− produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalarini takomillashtirishda samarador bo‘lgan ijodiy, integrativ, didaktik mashq va topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va tajriba guruhlarida sinovdan o‘tkazildi;

− nofilologik ta’lim yo‘nalishi (tarix yo‘nalishi) 1-, 2-bosqich talabalariga ingliz tili o‘qitishda produktiv va izlanuvchan yondashuvning “Flipped classroom” modelidan foydalanib, “CASE study” va “SMART” texnologiyalari yordamida takomillashtirildi;

− olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilindi va talabalarda produktivlik va izlanuvchanlik darajasining o‘sish samaradorligi aniqlandi.

Tajriba maydonlari sifatida Andijon davlat universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Jizzax davlat pedagogika universitetlari tanlandi. Ko‘rsatilgan hududlarda tajriba-sinov ishlari 2022–2023 o‘quv yilida tashxis va bashorat qilish, tashkiliy tayyorgarlik, amaliy hamda umumlashtiruvchi bosqichlarda amalga oshirildi.

Natijalar va ularning tahlili

Pedagogik tajriba-sinovning *tashkiliy-tayyorgarlik* bosqichida nofilologik OTMlarda ingliz tilini o‘qitishda produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalarining qo‘llanishi bo‘yicha mavjud holatni obyektiv baholash maqsadida o‘tkazilgan anketa-so‘rovnomada 1-, 2-bosqich talabalaridan jami 686 ta respondent qatnashdi. Dastlabki so‘rovnoma, dastlabki va yakuniy testlar olinib, natijalar qayd etib borildi. 2022–2023-o‘quv yilida dastlabki so‘rovnomada Andijon davlat universiteti talabalaridan 253 nafar, Nizomiy nomidagi TDPU talabalaridan 224 nafar hamda Jizzax pedagaogika universiteti talabalaridan 209 nafar respondent ishtirok etdi (1-jadval).

1-jadval

Tajriba-sinovning dastlabki so‘rovnomasida ishtirok etgan respondentlar umumiy soni

Tajriba-sinov maydonlari	Respondentlar soni	1-bosqich	2-bosqich
ADU	253 ta	118 ta	135 ta
TDPU	224 ta	109 ta	115 ta
JDPU	209 ta	103 ta	106 ta
Jami	**686**	**330**	**356**

Tajriba-sinovning dastlabki so‘rovnomasida ishtirokchilar tajriba guruhi (TG) hamda nazorat guruhlariga (NG) ajratildi. Pedagogik tajriba-sinovda OTMlarning 1-, 2-bosqich talabalari tajriba guruhlarida jami 446 nafarni, nazorat guruhlarida esa 441 nafarni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

Dastlabki so‘rovnoma jarayonida eksperimental tanlanma miqdori

Bosqichlar	ADU		TDPU		JDPU		Jami	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
1-bosqich	58	60	51	56	52	50	161	166
2-bosqich	69	67	59	57	54	53	182	177
Jami	127	127	110	113	106	103	343	343

2022–2023-o‘quv yilida tajriba boshida ADU talabalaridan 66 nafari tajriba guruhlarida va 63 nafari nazorat guruhlarida, Nizomiy nomidagi TDPU talabalaridan 60 nafari tajriba guruhlarida va 53 nafari nazorat guruhlarida, JDPU talabalaridan 56 nafari tajriba guruhlarida va 51 nafari nazorat guruhlarida ishtirok etgan. Mazkur o‘quv yilida o‘tkazilgan tajriba-sinovda talabalardan jami 233 nafari tajriba guruhlarida, 214 nafari esa nazorat guruhlarida qatnashgan.

2022–2023-o‘quv yilida tajriba yakunida ADU talabalaridan 64 nafari tajriba guruhlarida va 60 nafari nazorat guruhlarida, Nizomiy nomidagi TDPU talabalaridan 57 nafari tajriba guruhlarida va 54 nafari nazorat guruhlarida, JDPU talabalaridan 52 nafari tajriba guruhlarida va 50 nafari nazorat guruhlarida ishtirok etgan. Mazkur o‘quv yilida o‘tkazilgan tajriba-sinovda talabalardan jami 229 nafari tajriba guruhlarida, 211 nafari esa nazorat guruhlarida qatnashgan (3-jadval).

3-jadval

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida eksperimental tanlanma miqdori

OTM	Tajriba boshida talabalar soni		Tajriba yakunida talabalar soni		Umumiysi	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG
ADU	66	63	64	60	130	123
TDPU	60	53	57	54	117	107
JDPU	56	51	52	50	108	101
Jami	182	167	173	164	355	331

Anketa so‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘rovnomaning 4-bandidagi “***Ingliz tili darslarida o‘qish, eshitish, gapirish va yozuv kabi nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda qanday materiallar qo‘llanilishi sizga samara beradi?”*** degan savolga talabalarning 107 nafari (10,4%) mavzuga oid filmlarni tomosha qilish, 122 nafari (11,9%) rasmlar bilan ishlash, 290 nafari (28,3%) texnologik vositalar qo‘llanilishi, 65 nafari (6,3%) audio materiallar qo‘llanilishi, 172 nafari (16,7%) turli mashq va topshiriqlarni bajarish va 7 nafarigina (0,68%) matnlarni tarjima qilish samarali ekanligini ta’kidlaganlar. So‘rovnoma javoblariga ko‘ra, talabalarning 793 nafari (77,4%) ingliz tili dars mashg‘ulotlarida didaktik vositalarning qo‘llanilishini ijobiy baholaganlar. Shuningdek, talabalarning aksariyat qismi “SMART”, “CASE study” texnologiyalari haqida munosabat bildirmaganligi ham ma’lum bo‘lgan.

Talabalarning nutq faoliyati bo‘yicha ko‘nikmalarini aniqlash maqsadida dastlabki tekshiruv o‘tkazildi. Bunda tarix yo‘nalishi 1- va 2- bosqich talabalariga tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozuv bo‘yicha mashq va topshiriqlardan iborat testlar tarqatildi. Natijalar jadval ko‘rinishida quyidagi tartibda baholandi (4-, 5-jadvallar).

4-jadval

1-bosqich talabalarining nutq faoliyati turlari dastlabki holati ko'rsatkichlari

	Topshiriq turlari	Baho	ADU		TDPU		JDPU	
			Abs	(%)	Abs	(%)	Abs	(%)
1-bosqich	Tinglab tushunish	5	4	5.7	3	10.3	2	8.3
		4	15	21.4	2	6.9	7	29.2
		3	15	21.5	6	20.7	10	41.5
		2	36	51.4	18	62.1	5	21
	Jami		**70**	**100**	**29**	**100**	**24**	**100**
	Gapirish	5	5	7.2	1	3.4	4	16.7
		4	6	8.6	2	6.9	5	20.8
		3	19	27.1	8	27.6	6	25
		2	40	57.1	18	62.1	9	37.5
	Jami		**70**	**100**	**29**	**100**	**24**	**100**
	O'qish	5	4	5.7	2	6.8	3	12.5
		4	21	30	6	20.7	7	29.2
		3	30	43	11	38	12	50
		2	15	21.3	10	34.5	2	8.3
	Jami		**70**	**100**	**29**	**100**	**24**	**100**
	Yozuv	5	5	7.1	1	3.4	2	8.3
		4	4	5.7	5	17.2	3	12.5
		3	20	28.6	10	34.6	13	54.2
		2	41	58.6	13	44.8	6	25
	Jami		**70**	**100**	**29**	**100**	**24**	**100**

5-jadval

2-bosqich talabalarining nutq faoliyati turlari dastlabki holati ko'rsatkichlari

	Topshiriq turlari	Baho	ADU		TDPU		JDPU	
			Abs	(%)	Abs	(%)	Abs	(%)
2-bosqich	Tinglab tushunish	5	4	5.3	2	6.9	8	26.7
		4	16	21,1	2	6.9	7	23.3
		3	41	53.9	12	41.4	10	33.3
		2	15	19,7	13	44.8	5	16.7
	Jami		**76**	**100**	**29**	**100**	**30**	**100**
	Gapirish	5	5	6.6	3	10.3	6	20
		4	26	34.2	8	27.5	5	16.7
		3	30	39.5	14	48.2	13	43.3
		2	15	19.7	4	14	6	20,0
	Jami		**76**	**100**	**29**	**100**	**30**	**100**
	O'qish	5	5	6.6	4	13.8	5	17
		4	38	50,0	8	27.5	12	40
		3	20	26.3	12	41.4	10	33.3
		2	13	17.1	5	17.3	3	10.3
	Jami		**76**	**100**	**29**	**100**	**30**	**100**
	Yozuv	5	3	3.9	2	6.9	3	10
		4	10	6.6	9	31.1	5	16.7
		3	33	42.1	15	51.7	18	60
		2	30	47.4	3	10.3	4	13.3
	Jami		**76**	**100**	**29**	**100**	**30**	**100**

Dastlabki holat tahliliga ko‘ra, nofilologik ta’lim (tarix) yo‘nalishi OTMlari talabalarining nutq faoliyati turlaridan *tinglab tushunish* va *o‘qish*ga nisbatan *og‘zaki* va *yozma nutq*da ko‘plab qiyinchiliklar vujudga kelganligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, talabalar *o‘qib* hamda *tinglab tushunish*da mavzuga oid materiallar mazmun-mohiyatini matn sarlavhasi yoki ayrim tanish so‘zlar yordamida taxmin qilish orqali tushuna olishlari kuzatildi, biroq mavzu yuzasidan o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ifodalab bera olmasliklari ayon bo‘ldi. Jumladan, muloqot jarayonida talabalarda tor doirada fikrlash, so‘z boyligi yetarli emasligi natijasida so‘zlarni o‘z o‘rnida va to‘g‘ri qo‘llay olmasligi namoyon bo‘ldi. Yozma nutqni ifodalashda talabalar mavzuga oid savollarga javob yozish, dialog yoki savollar tuzish kabi ayrim to‘siqlarga duch kelishdi. Asoslovchi bosqichda o‘tkazilgan nazorat ishlari natijalari tarix mutaxassisligi talabalarining xorijiy tilni bilish darajasini oshirishda produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalaridan foydalanish orqali nutq faoliyati turlarini uyg‘unlikda rivojlantirish, og‘zaki hamda yozma nutq ko‘nikmalariga ko‘proq urg‘u berilishi zarur, degan xulosaga olib keldi.

6-jadval

Talabalarning nutq faoliyati turlarining dastlabki umumiy holati tahlil natijalari

Topshiriqlar soni	Tajriba guruhi (355 nafar)				Nazorat guruhi (331 nafar)			
	To‘g‘ri javoblar		Noto‘g‘ri javoblar		To‘g‘ri javoblar		Noto‘g‘ri javoblar	
	talabalar soni	(%)	talabalar soni	(%)	talabalar soni	(%)	talabalar soni	(%)
Tinglab tushunish (Listening)	180	50.6%	175	49.4%	160	48.3%	171	51.6%
Gapirish (Speaking)	181	50.9%	174	49.1%	166	50,1%	166	50,2%
O‘qish (Reading)	182	51.2%	173	48.8%	163	49.4%	167	50.6%
Yozuv (Writing)	179	50.3%	176	49.7%	159	48.1%	171	51.7%
Jami	181	51%	174	49%	162	49%	169	51%

*Shakllantiruvchi bosqich*da nofilologik ta’lim (tarix) yo‘nalishidagi OTMlarning 1-, 2-bosqich talabalari tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tadqiqot jarayonida talabalarning produktiv va izlanuvchan yondashuvini takomillashtirishga qaratilgan har bir bosqich uchun alohida mashq va topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi, ‘SMART” texnologiyalari yordamida “Flipped classroom” modeliga tayanib, “CASE study” texnologiyasining qo‘llanilishi tajriba guruhlarida sinovdan o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dasturga asosan tuzilgan ishchi o‘quv dasturlari doirasida amalaga oshirildi.

Bunda 1-bosqich uchun quyidagi turdagi mashq va topshiriqlardan foydalanildi.

1. Produktiv turdagi mashqlar:

“Dialogni tinglang, so‘ng shu mavzuda o‘zingiz dialog tuzing (Listen to the dialogue and make up your own dialogue according to the topic)”.

“Rasmdagi holatni tasvirlang va vaziyatni tushuntirib bering (Describe the photo and explain the situation)”.

“Matnni o‘qing va ketma-ketlikda joylashtiring (Read the text and put it in chronological order)”.

“Mavzu yuzasidan o‘z fikr va mulohazalaringizni yozing (Write your own opinion about topic)”.

2. Ijodiy turdagi mashqlar:

“Dialogni tinglang va nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying (Listen to the dialogue and put the appropriate words)”.

“Do‘stingizdan u duch kelgan muammo yuzasidan intervyu oling (Take an interview to your friend on a problematic situation)”.

“Matnni o‘qing va uni o‘zingiz davom ettiring (Read the story and continue with your opinion)”.

“Filmni tomosha qiling va unda qo‘llangan fe’l, ot, sifatlarni alohida yozing (Watch the movie and write down the used verb, noun, adjectives separately)”.

3. Tanqidiy turdagi mashqlar:

“Audioni tinglang va berilgan javoblardan mosini belgilang (Listen to the audio and mark the appropriate one from given answers)”.

“Quyida keltirilgan paragrafdagi fakt va fikrni aniqlang (Identify the Facts and Opinion in the paragraph below)”.

“Quyidagi mavzu yuzasidan insho yozing. Inshoda keltirilgan yechimlarni bir-biriga solishtiring va ularni taqqoslang (Write an essay on the topic below. Compare and contrast the solutions provided in the essay)”.

“Mavzuda keltirilgan holatni maxsus so‘roq gaplar yordamida tasvirlab bering (Describe the situation in the topic using the special or wh questions)”.

2-bosqichda esa quyidagi mashq va topshiriqlardan foydalanildi:

1. Keys topshiriqlari:

“Filmdagi vaziyatni guruh ichida muhokama qiling va unga munosib yechim bering (Discuss the situation in the film within the group and give a suitable solution to it)”.

“Matnda “Eng munosib nomzod” ish o‘rni uchun talablar keltirilgan. Quyida keltirilgan nomzodlarning ta’riflarini o‘qing va yuqoridagi kasbga mos keladiganini belgilang (The lists of requirements for the «The best candidate for the job». Read the definitions of the candidates listed below and mark the one that corresponds to the above profession)”.

“Mavzu asosida muammoli vaziyatga birgalikda yechim yozing (Write the solution to the problem with your partner)”.

“Mavzu yuzasidan muammoli vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillar haqida o‘z fikrlaringizni bayon eting (Speak about factors of problematic situation)”.

2. Izlanuvchan yondashuv mashqlari.

“Audiodagi monologni tinglang va so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirmagan holda ularni boshqa so‘zlar yordamida ifodalang (Listen to the monologue in the audio and paraphrase them without changing their meaning)”.

“Matnni o‘qing va unda keltirilgan hodisa yoki shaxslar o‘rtasidagi sabablar yoki munosabatlarni tahlil qiling (Read the article and analyze the phenomenon in it and the causes or relationships between individuals)”.

“Jadvalda berilgan tarixiy jarayonni matn shaklida yozing (Write a review about historical process given in the table)”.

“Dunyo tarixida sodir bo‘lgan eng qiziqarli hodisa haqida taqdimot tayyorlang (Make a presentation about the most interesting event that happened in the world history)”.

Tadqiqotning shakllantiruvchi bosqichida nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining xorijiy tilini rivojlantirish uchun produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalarini qo‘llashda o‘qitish darajasi, sharoit va imkoniyatlar baholandi. Ushbu bosqichda ingliz tilida darslar o‘qish, yozuv, nutq va tinglab tushunish ko‘nikmalarini hisobga olgan holda, produktiv, izlanuvchan, ijodiy, autentik turdagi mashqlar hamda keys toshiriqlari asosida olib borildi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1) tajriba guruhida produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalari yordamida o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi;

2) nazorat va tajriba guruhlarida talabalar o‘rtasida so‘rovnomalar va ingliz tili nutq ko‘nikmalari darajasini aniqlash uchun tajribaoldi va yakuniy testlar tashkil etildi;


3) ishlab chiqilgan o‘qitish usullarining samaradorligi aniqlandi va kamchiliklar to‘g‘rilandi;

4) taklif etilgan mashq va topshiriqlar to‘plamining uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va samaradorligi tekshirildi;

5) tadqiqot ikkinchi bosqich natijalari bo‘yicha dastlabki xulosalar shakllantirildi.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni ob’yektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta’kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va ob’yektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlar tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko‘rsatkichlari bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ladi.

Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi.



1-rasm. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining xorijiy tilni rivojlantirishda produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha rivojlanganlik diagrammasi.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o'rta ko'rsatkichlar nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan yuqori ekan. Chizilgan diagrammalarning xar biri statistik jadval normal taqsimotga ega bo'lgan bosh to'plamlardan olinganligi xaqidagi faraz-gipotezani oldinga surish mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Produktiv va izlanuvchan yondashuv texnologiyalarini takomillashtirishda samarador bo'lgan ijodiy, integrativ, didaktik mashq va topshiriqlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari yuzasidan tashkil etilgan tadqiqot ishi kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkinligini isbotladi.

Tarix yo'nalishi 1-, 2-bosqich talabalarida ingliz tili o'qitishda "Flipped classroom" modelidan foydalanib "CASE study" texnologiyasi qo'llanilishiga erishildi. Talabalarning "SMART" qurilmalardan foydalanish ko'nikmalari hosil bo'lganligi aniqlandi. Natijada talabalarning darsdagi faolligi oshganligi kuzatildi

Pedagogik tajriba-sinov natijalariga ko'ra, talabalarning bilim sifati ko'rsatkichlari sezilarli ortishi va tavsiya etilgan dasturiy vositalar hamda mashq va topshiriqlar tizimi samarali ekanligi tasdiqlandi.

Adabiyotlar:

1. *Нурманов А.Т.* Талабаларнинг самарали мулоқот технологияси ва техникасига тайёрлашнинг педагогик имкониятлари (аудиториядан ташқари машғулотлар мисолида): Автореф... дисс. ...пед.фан. докт. − Тошкент, 2017. − 37 б.

2. *Выготский Л.С.* Избранные психологические исследования. – Москва, Издательство АПН РСФСР, 1956. − 650 с.

3. *Леонтьев А.Н.* Деятельность. Сознание. Личность. – Изд. 2-е. – Москва: «Политиздат», 1975. – 370 с.

4. *Теплов Б.М.* Труды по психофизиологии индивидуальных различий. – Москва: Издательство МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2004. – 500 с.

5. *Петровский А.В., Ярошевский М.Г.* Основы теоретической психологии. − Москва-Воронеж: Научно-издательский центр ИНФРА-М, 1998. – 550 с.

6. *Рубинштейн С.Л.* Основы общей психологии. – Санкт-Петербург*:* Питер, 2006. – 733 с.

7. *Ильин Е.П.* Психология творчества, креативности, одаренности. – Санкт-Петербург: Питер, 2009. – 448 с.

8. *Гин А.А.* Приемы педагогической техники: пособие для учителя. − Москва: Вита-пресс, 2004. − 240 с.

9. *Нестренко А.А., Ширявёв В.А.* ТРИЗ-педагогика / В кн.: Межвузовский сборник научных трудов. – Саратов, 2007. 71-75 с.

10. *Давыдова М.А.* Деятельностная методика обучения иностранным языкам. – Москва: Высшая школа, 1990. – 180 с.

11. *Жинкин Н.И., Некрасова Ю.Б., Лейтес Н.С.* Механизмы речи. Выдающиеся ученые психологического института. – Москва: ПИ РАО, РШБА, 2021. – 400 с.

ANALYSIS OF PRODUCTIVE AND INQUIRY-BASED APPROACHES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO NON-PHILOLOGICAL STUDENTS

Umida S. Nizamova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2025. 6(90). 22–30.

[1]Andijan State Technical Institute, Andijan, 170119, str. Bobur shokh, 56 (Uzbekistan). E-mail: info@ast-iedu.uz

Key words: productive approach, inquiry-based approach, communicative method, integrative tasks, creativity, foreign language competence.

The article is examined the application of integrative tasks as an effective means of developing the creative potential of history students in the process of foreign language instruction. The enhancement of students' intellectual curiosity is achieved through the integration of a productive approach with text-based language and speech activities. The study is grounded in a system of exercises, tasks, and instructional strategies designed to improve the implementation of productive and inquiry-based approaches when working with professionally oriented historical texts. These activities are aimed at fostering students' scientific creativity, inquisitiveness, and professional competencies. Additionally, the instructional framework incorporates video-based lessons and authentic materials structured around the principles of empathic communication.

Within the foreign language teaching process, particular pedagogical factors are directed toward the development of students' creative skills. Learners demonstrate the formation of independent reproductive abilities, reflecting a high level of cognitive engagement in knowledge acquisition. Reproductive techniques facilitate faster and more durable retention of instructional material while enabling students to more clearly identify gaps in their understanding. Optimal learning outcomes are achieved when reproductive methods are applied systematically and in combination with the introduction of new knowledge.

At present, the integration of modern educational technologies, the development of corresponding teaching materials, and the effective use of didactic tools during classroom instruction represent pressing challenges in education. In the context of recent educational reforms, the significance of productive and inquiry-based approaches in foreign language teaching has become particularly pronounced. These approaches encompass not only the use of advanced technical tools, but also the adoption of innovative instructional forms and methods, reflecting a fundamentally new perspective on the educational process.

The implementation of productive and exploratory approaches contributes to the development of independent thinking and promotes collaborative learning among students. Such methods foster essential moral and social values, including cooperation, mutual support, and shared responsibility, while simultaneously stimulating creativity and increasing learner engagement. As a result, the classroom environment becomes more interactive and learner-centered.

Reproductive and creative activities are closely interconnected, as reproductive learning contains elements of creativity, while creative activity relies on a foundation of reproducibility. At the reproductive level, a high capacity for knowledge assimilation is demonstrated through the acquisition of relevant skills and competencies. At the creative level, knowledge and skills are applied in original and innovative ways. To effectively develop students' creative abilities, it is advisable for teachers to move beyond traditional lesson structures, promote critical and creative thinking, and employ productive, interactive methods that encourage originality, unconventional problem-solving, and the generation of new ideas.

References:

1. Nurmanov, A.T. (2017). Talabalarning samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari [Pedagogical possibilities of preparing students for the technology and technique of effective communication] Abstract of the dissertation for Doctor of pedagogical Sciences.Tashkent.

2. Vygotskij, L.S. (1956) *Izbrannye psihologicheskie issledovaniya* [Selected psychological studies]. Moscow: Izdatel'stvo APN RSFSR.

3. Leont'ev, A.N. (1975) *Deyatel'nost'. Soznanie. Lichnost'* [Activity. Conscience. Personality]. Moscow: "Politizdat".

4. Teplov, B.M. (2004) *Trudy po psihofiziologii individual'nyh razlichij* [Works on the psychophysiology of individual differences]. Moscow: Izdatel'stvo MPSI; Voronezh: MODEK.

5. Petrovskij, A.V., Yaroshevskij, M.G. (1998) *Osnovy teoreticheskoj psihologii* [Fundamentals of theoretical psychology]. Moscow-Voronezh: Nauchno-izdatel'skij centr INFRA.

6. Rubinshtejn, S.L. (2006) *Osnovy obshchej psihologii* [Fundamentals of general psychology]. Sankt Peterburg: Piter.

7. Il'in, E.P. (2009) *Psihologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti* [Psychology of creativity, creativity, giftedness]. Sankt Peterburg: Piter.

8. Gin, A.A. (2004) *Priemy pedagogicheskoj tekhniki* [Methods of pedagogical technique: a manual for teachers]. Moscow: Vita-press.

9. Nestrenko, A.A., Shiryavyov V.A. (2007) TRIZ-pedagogika [TRIZ-pedagogy]. In: Mezhvuzovskij sbornik nauchnyh tudov [Interuniversity collection of scientific institutes]. Saratov. Pp. 71-75.

10. Davydova, M.A. (1990) *Deyatel'nostnaya metodika obucheniya inostrannym yazykam* [Activity-based methods of teaching foreign languages]. Moscow: Vysshaya shkola.

11. Zhinkin, N.I., Nekrasova, Yu.B., Lejtes, N.S. (2021) *Mekhanizmy rechi*. Vydayushchiesya uchenye psihologicheskogo instituta [Outstanding scientists of the Psychological Institute]. Moscow: PI RAO, RSHBA.

Muallif haqida ma'lumot:

NIZAMOVA Umida Sanjarovna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori **(**PhD), Andijon davlat texnika instituti Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti v.b. E-mail: umidanizamova18@grail.com